QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
QDTU

INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026
№11

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar Crossref OpenAIRE CYBERLENIKA

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

11-jild
11-son
Noyabr, 2026

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and practical journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

globalsciencehub.uz

Muassis:
Qarshi davlat texnika universiteti
Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:
+998 (75) 221 09 23
+998 (93) 902 72 63
Faks: +998 (75) 221 1395
innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a’zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor
Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor
Shoxujayeva Zebo Safoyevna i.f.d., professor
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent
Ubaydullayev G‘ayrat Zuvaytovich -i.f.n., dotsent
Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Xo‘janova Gulshoda Otamurodovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent
Safarov Farhod Anvarovich - i.f.d., dotsent

ИННОВАТSIОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

globalsciencehub.uz

Учредитель:
Каршинский государственный технический университет
Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:
180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23
+998 (93) 902 72 63
Факс: +998 (75) 221 1395
E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчиников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)
Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)
Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)
Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)
Кусаинов Халел Хаймуллиевич - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)
Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)
Гибадуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)
Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)
Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)
Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)
Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)
Перская Виктория Вадимовна – д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)
Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)
Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)
Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)
Незамайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГГУ)
Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)
Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)
Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)
Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидахрор Саидахмедович – д.э.н., профессор, академик
Пардаев Мамаюнус Каршибоевич – д.э.н., профессор
Навруз-заде Бахтиёр Негматович – д.э.н., профессор
Хатамов Очилди Курбонович – д.э.н., профессор
Файзиева Ширин Шодмоновна – к.э.н., профессор
Жумаева Гулрух Журакуловна – к.э.н., профессор
Шохужаева Зебо Сафоевна – д.э.н., профессор
Эгамбердиева Салима Раимовна – к.э.н., доцент
Эркаева Гулбахор Панжиевна – к.э.н., профессор
Якубова Шамшинур Шухратовна – д.э.н. (DSc), доцент
Амиркулов Шухрат Олимович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Самиева Гулноза Тохировна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Убайдуллаев Гайрат Зувайтович – к.э.н., доцент
Ходжакулова Нигора Рустамовна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Туробов Шерзод Алишерович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Алимова Муниса Юлчиевна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Эргашева Насиба Рахматуллаевна – д.э.н. (DSc), доцент
Бобокулов Санжар Бахромкулович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Джалилов Рахмонкул Хамидович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Номазов Бахром Бобомуродович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Алимханова Нигора Алимхановна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Жонузоков Мирзабек Кулмаматович – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Ходжанова Гулшода Отамуродовна – д.ф.э.н. (PhD), доцент
Турсунова Азиза Хошимовна – д.ф.э.н. (PhD)
Холлиев Шерали Бахтиёрович – д.ф.э.н. (PhD)
Панжиев Самижон Аликулович – PhD, доцент
Сафаров Фарход Анварович – д.э.н., доцент

https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.11.11.2026.2 *Moliya, kredit va investitsiya*

AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGI VA SUG‘URTA XIZMATLARIGA TALAB: O‘ZBEKISTON UY XO‘JALIKLARI MISOLIDA

Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich

ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ И СПРОС НА СТРАХОВЫЕ УСЛУГИ: НА ПРИМЕРЕ ДОМОХОЗЯЙСТВ УЗБЕКИСТАНА

Бахриев Дилшод Ризвонкулович

FINANCIAL LITERACY AND HOUSEHOLD DEMAND FOR INSURANCE: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN

Bakhriyev Dilshod Rizvonkulovich

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston aholisining moliyaviy savodxonlik darajasi bilan uy xo‘jaliklarining sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabi o‘rtasidagi bog‘liqlik tadqiq etilgan. Tadqiqotning axborot bazasini OECD/INFE ning 2021-yilgi MDH mamlakatlari bo‘yicha moliyaviy savodxonlik so‘rovi, Jahon bankining Global Findex (2011–2025) ma’lumotlari, O‘zbekiston Markaziy banki va Osiyo taraqqiyot bankining 2025-yilgi so‘rovnomasi hamda sug‘urta bozori va Statistika agentligining 2020–2025-yillar ko‘rsatkichlari tashkil etadi. Muallif tomonidan bilim savollarini “kundalik hisob-kitob” va “uzoq muddatli hamda risk” guruhlariga ajratish orqali savodxonlik tarkibidagi nomutanosiblik baholangan, aholi jon boshiga sug‘urta mukofotlari (sug‘urta zichligi) hisoblangan. Natijalar O‘zbekistonda moliyaviy xulq va munosabat ko‘rsatkichlari MDH o‘rtachasidan yuqori bo‘lsa-da, murakkab foiz va diversifikatsiya kabi sug‘urta mantiqi uchun tayanch tushunchalarni bilish past ekanini ko‘rsatdi: ikki guruh o‘rtasidagi farq 21,7 foiz bandini tashkil etadi. 2020–2025-yillarda sug‘urta zichligi nominal jihatdan 5,2 baravar oshgan, biroq hayot sug‘urtasining aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan hajmi 2025-yilda bor-yo‘g‘i 15,5 ming so‘mni tashkil etgan va yangi shartnomalarning qariyb yarmi majburiy avtofuqarolik javobgarligi sug‘urtasiga to‘g‘ri kelgan. Shu asosda sug‘urta savodxonligini moliyaviy ta’lim dasturlariga kiritish, mahsulot axborotini soddalashtirish va xavfsiz raqamli sotuv kanallarini rivojlantirishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy savodxonlik, sug‘urta savodxonligi, uy xo‘jaliklari, sug‘urta zichligi, moliyaviy inklyuziya, ixtiyoriy sug‘urta.

Аннотация. В статье исследуется взаимосвязь между уровнем финансовой грамотности населения Узбекистана и спросом домохозяйств на страховые услуги. Информационную базу составляют обследование финансовой грамотности ОЭСР/INFE в странах СНГ (2021), данные Global Findex Всемирного банка (2011–2025), опрос Центрального банка Узбекистана при поддержке Азиатского банка развития (2025), а также показатели страхового рынка и Агентства статистики за 2020–2025 гг. Путём группировки вопросов о финансовых знаниях на «повседневные расчёты» и «долгосрочные и рисковые» понятия оценена структурная неоднородность грамотности, рассчитана плотность страхования (страховые премии на душу населения). Показано, что при более высоких, чем в среднем по СНГ, показателях финансового поведения и установок знание сложного процента и диверсификации — базовых для понимания страхования понятий — остаётся низким; разрыв между двумя группами составляет 21,7 п.п. В 2020–2025 гг. плотность страхования номинально выросла в 5,2 раза, однако премии по страхованию жизни на душу населения в 2025 г. составили лишь 15,5 тыс. сумов, а почти половина новых договоров пришлась на обязательное страхование гражданской ответственности владельцев транспортных средств. Предложены меры по включению страховой грамотности в программы финансового образования, упрощению информации о продуктах и развитию безопасных цифровых каналов продаж.

Ключевые слова: финансовая грамотность, страховая грамотность, домохозяйства, плотность страхования, финансовая доступность, добровольное страхование.

Abstract. The article examines the link between the financial literacy of Uzbekistan’s population and household demand for insurance services. The evidence base combines the OECD/INFE 2021 financial literacy survey of CIS countries, the World Bank Global Findex data (2011–2025), the 2025 survey of the Central Bank of Uzbekistan supported by the Asian Development Bank, and insurance market and national statistics for 2020–2025. By grouping

knowledge questions into “everyday calculation” and “long-term and risk” items, the study measures the internal imbalance of financial literacy and computes insurance density (premiums per capita). The results show that while Uzbekistan scores above the CIS average on financial behaviour and attitudes, knowledge of compound interest and diversification — concepts that underpin the logic of insurance — remains weak, with a 21.7 percentage-point gap between the two groups. Between 2020 and 2025 insurance density rose 5.2-fold in nominal terms, yet life insurance premiums per capita amounted to only UZS 15.5 thousand in 2025, and nearly half of new contracts were compulsory motor third-party liability policies. The paper proposes embedding insurance literacy into financial education programmes, simplifying product disclosure and developing safe digital distribution channels.

Keywords: financial literacy, insurance literacy, households, insurance density, financial inclusion, voluntary insurance.

KIRISH

Uy xo‘jaligi hayotida kutilmagan hodisalar – kasallik, baxtsiz hodisa, mulkka shikast yetishi yoki oila boquvchisini yo‘qotish – ko‘pincha bir necha yillik jamg‘armani bir zumda yo‘qqa chiqaradi. Rivojlangan mamlakatlarda bunday xatarlarning sezilarli qismi sug‘urta orqali boshqariladi, rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda esa oilalar asosan qarindoshlar ko‘magi, norasmiy qarz yoki iste’molni qisqartirish yo‘lini tanlaydi. Bu tanlov faqat daromad darajasiga emas, balki insonning risk, foiz, vaqt bo‘yicha pul qiymati kabi tushunchalarni qanchalik anglashiga ham bog‘liq. Shu sababli moliyaviy savodxonlik zamonaviy iqtisodiy adabiyotda moliyaviy xizmatlarga talabni belgilovchi mustaqil omil sifatida qaralmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda sug‘urta bozori jadal o‘sdi: yalpi sug‘urta mukofotlari 2020-yildagi 2,34 trln so‘mdan 2025-yilda 13,46 trln so‘mga yetdi, sug‘urta penetratsiyasi esa YaIMga nisbatan 0,33 foizdan 0,73 foizga ko‘tarildi. Ushbu o‘sishga 2021-yil 23-noyabrdagi O‘RQ-730-son “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun hamda Prezidentning 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-son qarori bilan boshlangan islohotlar huquqiy asos yaratdi. Shunga qaramay, penetratsiya darajasi jahon o‘rtacha ko‘rsatkichi (taxminan 7 foiz) dan qariyb o‘n baravar past bo‘lib qolmoqda (Swiss Re Institute, 2024). Bozor o‘sishining katta qismi majburiy turlar va bank kreditlari bilan bog‘liq sug‘urta hisobiga ta’minlanayotgani esa aholining ixtiyoriy sug‘urtaga bo‘lgan mustaqil talabi hali shakllanmaganidan dalolat beradi.

Mavjud mahalliy tadqiqotlar sug‘urta bozorini asosan taklif tomoni – sug‘urtalovchilarning kapitali, to‘lov qobiliyati, investitsiya faoliyati nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Talab tomoni, xususan, uy xo‘jaliklarining bilim va xulq-atvori sug‘urta iste’moliga qanday ta’sir ko‘rsatishi yetarlicha tahlil qilinmagan. Holbuki, 2021-yilda O‘zbekiston OECD/INFE ning xalqaro metodikasi bo‘yicha moliyaviy savodxonlik so‘rovida ishtirok etgan, 2025-yilda esa Markaziy bank Osiyo taraqqiyot banki ko‘magida moliyaviy inklyuziya va savodxonlik bo‘yicha milliy so‘rov o‘tkazgan. Bu manbalar talab tomonini empirik asosda o‘rganish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi – O‘zbekiston aholisining moliyaviy savodxonlik tarkibi va moliyaviy inklyuziya ko‘rsatkichlarini sug‘urta bozori dinamikasi bilan qiyoslab, uy xo‘jaliklarining ixtiyoriy sug‘urtaga talabini cheklayotgan bilim va xulq omillarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo‘nalishlarini asoslash. Maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar qo‘yildi: moliyaviy savodxonlik va sug‘urta talabi o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha nazariy qarashlarni umumlashtirish; savodxonlikning sug‘urta uchun ahamiyatli tarkibiy qismlarini ajratib baholash; aholi jon boshiga sug‘urta ko‘rsatkichlarini hisoblash; davlat siyosati uchun amaliy takliflar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy savodxonlikni o‘lchash bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarning nazariy asosini A. Lusardi va O. Mitchell ishlari tashkil etadi. Mualliflar foiz stavkasi, inflyatsiya va risk diversifikatsiyasiga oid “uchta asosiy savol” yordamida turli mamlakatlarda aholining katta qismi oddiy moliyaviy hisob-kitoblarni bajara olmasligini ko‘rsatgan va savodxonlikni jamg‘arish, pensiyaga tayyorgarlik hamda qarz yukini boshqarish bilan bog‘lagan (Lusardi & Mitchell, 2014). OECD/INFE metodikasi esa savodxonlikni uch o‘lchov – bilim, xulq va munosabat yig‘indisi sifatida baholashni taklif etgan (Atkinson & Messy, 2012); aynan shu metodika O‘zbekiston bo‘yicha 2021-yilgi so‘rovda qo‘llanilgan (OECD, 2021).

Sug‘urta talabining makroiqtisodiy omillari klassik tadqiqotlarda chuqur o‘rganilgan. J. F. Outreville rivojlanayotgan mamlakatlarda hayot sug‘urtasi bozorining rivoji shaxsiy daromad, moliya sektorining chuqurligi va inflyatsiya darajasiga bog‘liqligini ko‘rsatgan (Outreville, 1996). T. Beck va I. Webb 68 mamlakat ma’lumotlarida hayot sug‘urtasi iste’molini inflyatsiya, bank sektori rivoji va institutsional sifat belgilashini, demografik omillarning ta’siri esa barqaror emasligini aniqlagan (Beck & Webb, 2003). Ushbu ishlar talabni mamlakat darajasida tushuntiradi, biroq bir xil daromadli oilalar nega turlicha qaror qabul qilishini izohlab bermaydi.

Mikrodarajadagi tadqiqotlar bu bo‘shliqni to‘ldiradi. S. Cole va hammualliflari Hindistonda ob-havo indeksiga asoslangan sug‘urta bo‘yicha dala tajribalarida mahsulotga ishonch, likvidlik cheklovlari va moliyaviy savodxonlik sotib olish qaroriga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini isbotlagan (Cole et al., 2013). H. Kunreuther, M. Pauly va S. McMorrow sug‘urta qarorlarini xulq-atvor iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan tahlil qilib, odamlar kichik ehtimolli, ammo yirik zararli xatarlarni muntazam ravishda kam baholashini va mukofotni “qaytmaydigan xarajat” deb qabul qilishini ko‘rsatgan (Kunreuther et al., 2013). N. S. Mahdzan va S. Victorian Malayziya ma’lumotlarida jamg‘arish motivlari va moliyaviy savodxonlik hayot sug‘urtasiga talabning muhim omillari ekanini aniqlagan (Mahdzan & Victorian, 2013).

So‘nggi yillarda alohida “sug‘urta savodxonligi” tushunchasi shakllandi. X. Lin, A. Bruhn va J. William umumiy moliyaviy savodxonlik sug‘urta qarorlarini to‘liq tushuntirmasligini, sug‘urta shartnomasi shartlari,

franshiza va istisnolarni tushunish alohida o‘lchanishi lozimligini asoslagan (Lin et al., 2019). S. Weedige va hammualliflari Shri-Lanka misolida sug‘urta savodxonligi shaxsiy sug‘urta qarorlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri va ijobiy ta’sir qilishini tasdiqlagan (Weedige et al., 2019).

Moliyaviy inklyuziya bo‘yicha global ma’lumotlarning asosiy manbai Jahon bankining Global Findex bazasi hisoblanadi. 2021-yilgi nashr raqamli to‘lovlar va moliyaviy barqarorlik (resilience) ko‘rsatkichlariga alohida e’tibor qaratgan (Demirgüç-Kunt et al., 2022), 2025-yilgi nashr esa mobil aloqa va raqamli iqtisodiyot bilan bog‘liq yangi ko‘rsatkichlarni kiritgan (World Bank, 2025). O‘zbekistonlik tadqiqotchilardan S. A. Ablatdinov aholining moliyaviy savodxonligini oshirishdagi muammolar sifatida ta’lim dasturlarida moliyaviy mavzularning kamligi va hududlararo tafovutni ko‘rsatgan (Ablatdinov, 2023), S. Mirzaxo‘jayeva esa moliyaviy savodxonlikni barqaror rivojlanish bilan bog‘lab, uni maktab va oliy ta’limga tizimli kiritish zarurligini asoslagan (Mirzaxo‘jayeva, 2025).

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy savodxonlik va sug‘urta talabi o‘rtasidagi bog‘liqlik xorijiy tadqiqotlarda yetarlicha isbotlangan, biroq O‘zbekiston bo‘yicha ishlar asosan savodxonlikni umumiy tarzda tavsiflaydi va uni aniq moliyaviy xizmat – sug‘urta bozori ko‘rsatkichlari bilan bog‘lamaydi. Ushbu maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ikkilamchi ma’lumotlarga asoslangan qiyosiy-tahliliy dizaynga ega. Axborot bazasini to‘rt guruh manbalar tashkil etadi: (1) OECD/INFE ning 2021-yil may–avgust oylarida MDHning sakkiz mamlakatida (har birida 1000 respondent) o‘tkazilgan so‘rovi natijalari (OECD, 2021); (2) Global Findex bazasining 2011, 2014, 2017, 2021 va 2025-yillar ko‘rsatkichlari; (3) Markaziy bankning Osiyo taraqqiyot banki ko‘magida 2025-yil yanvar–fevral oylarida 6 hududda 1200 respondent ishtirokida o‘tkazgan so‘rovi natijalari; (4) Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi va Statistika agentligining sug‘urta mukofotlari, to‘lovlari, YaIM va aholi soni bo‘yicha ma’lumotlari.

Tahlilda quyidagi usullar qo‘llanildi. Birinchidan, O‘zbekiston savodxonlik ko‘rsatkichlari MDH o‘rtachasi va qo‘shni mamlakatlar bilan qiyoslandi; turli shkalalardagi ballar maksimal ballga nisbatan foizga keltirildi. Ikkinchidan, muallif yondashuvi sifatida OECD bilim testining yetti savoli sug‘urta mantiqiga yaqinligiga ko‘ra ikki guruhga ajratildi: “kundalik hisob-kitob” bilimlari (kredit foizi, inflyatsiya ta’rifi, oddiy foiz hisobi) va “uzoq muddatli hamda risk” bilimlari (pulning vaqt qiymati, murakkab foiz, risk va daromad, diversifikatsiya). Har bir guruh bo‘yicha to‘g‘ri javoblar ulushining o‘rtacha arifmetigi hisoblanib, ular orasidagi farq “bilim nomutanosibligi” ko‘rsatkichi sifatida talqin qilindi. Uchinchidan, sug‘urta zichligi quyidagicha hisoblandi: yalpi sug‘urta mukofotlari yillik o‘rtacha doimiy aholi soniga bo‘lindi; 2025-yil uchun o‘rtacha aholi soni 2025-yil 1-yanvar (37,54 mln) va 2026-yil 1-yanvar (38,24 mln) holatidagi ko‘rsatkichlarning o‘rtachasi sifatida (37,89 mln kishi) aniqlandi. Shuningdek, struktura, dinamika va nisbiy ko‘rsatkichlar tahlili, grafik usul hamda mantiqiy umumlashtirish qo‘llanildi.

Tadqiqotning cheklovlari ham mavjud: savodxonlik so‘rovi 2021-yilga tegishli bo‘lib, mamlakat bo‘yicha sug‘urta mahsulotiga egalik qilish bo‘yicha alohida ko‘rsatkich e’lon qilinmagan; shu sababli bog‘liqlik ekonometrik emas, balki qiyosiy-mantiqiy usulda baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy savodxonlikning umumiy darajasi. OECD/INFE so‘rovi natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda moliyaviy savodxonlikning umumiy bali 21 baldan 12,6 ni tashkil etib, MDH o‘rtachasidan (11,7) yuqori bo‘lgan va Belarusdan (12,9) keyin ikkinchi o‘rinni egallagan (1-jadval).


1-jadval.

O‘zbekiston va MDH mamlakatlarida moliyaviy savodxonlik ko‘rsatkichlari (2021-yil)[3]

Ko‘rsatkich	O‘zbekiston	Qozog‘iston	Qirg‘iziston	Rossiya	MDH o‘rtacha
Umumiy savodxonlik (21 ball)	12,6	12,5	11,6	12,5	11,7
Moliyaviy bilim (7 ball)	3,6	4,2	3,2	4,1	3,6
Moliyaviy xulq (9 ball)	6,2	5,9	5,9	5,8	5,6
Moliyaviy munosabat (5 ball)	2,8	2,4	2,5	2,6	2,5
Bilim bo‘yicha minimal maqsad (5+ ball)ga erishganlar, %	31	44	22	42	31

Jadvaldan ko‘rinadiki, O‘zbekistonning ustunligi bilim hisobiga emas, balki xulq (6,2 ball – MDHda eng yuqori) va munosabat (2,8 ball – MDHda eng yuqori) hisobiga shakllangan. Bilim bali esa MDH o‘rtachasiga teng (3,6) va Qozog‘iston (4,2) hamda Rossiyadan (4,1) sezilarli darajada past. Bilim bo‘yicha minimal maqsadga erishgan kattalar ulushi 31 foizni tashkil etgan, ya’ni har uch kishidan ikkitasi asosiy moliyaviy tushunchalarning kamida uchtasida xato qilgan. Bu holat 1-rasmda yaqqol ko‘rinadi.

[3] Manba: OECD (2021) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



1-rasm. Moliyaviy savodxonlik tarkibiy qismlari, maksimal balldan foizda (2021-yil)[4]

Bu natija sug‘urta uchun muhim xulosaga olib keladi. Xulq va munosabat ko‘rsatkichlarining yuqoriligi aholining pulni tejash, xarajatlarni rejalashtirish va to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirishga moyilligini bildiradi. So‘rovga ko‘ra, o‘zbekistonliklarning 80 foizi “pulimni diqqat bilan nazorat qilaman”, 85 foizi “to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshiraman”, 89 foizi esa faol jamg‘arma qilishini bildirgan (OECD, 2021). Demak, sug‘urtaga talabni cheklayotgan asosiy omil intizomsizlik emas, balki xatarni moliyaviy jihatdan baholash uchun zarur bo‘lgan bilimlarning yetishmasligidir.

Bilim tarkibidagi nomutanosiblik. Ushbu farazni tekshirish uchun bilim savollari yuqorida bayon etilgan ikki guruhga ajratildi (2-jadval).

2-*jadval.*

O‘zbekistonda moliyaviy bilim savollari bo‘yicha to‘g‘ri javoblar ulushi va ularning sug‘urta uchun ahamiyati (2021-yil)[5]

Bilim savoli	To‘g‘ri javob, %	Guruh	Sug‘urta uchun ahamiyati
Kredit bo‘yicha to‘lanadigan foiz	88,1	Kundalik	Kredit bilan bog‘liq sug‘urta shartlarini tushunish
Inflyatsiya ta’rifi	75,0	Kundalik	Sug‘urta summasining real qiymatini baholash
Oddiy foiz hisobi	28,1	Kundalik	Mukofot va to‘lovlarni solishtirish
Pulning vaqt qiymati	51,1	Uzoq muddat / risk	Hayot va pensiya sug‘urtasining mohiyati
Murakkab foiz	11,3	Uzoq muddat / risk	Jamg‘ariladigan hayot sug‘urtasi daromadi
Risk va daromad	58,8	Uzoq muddat / risk	Investitsion sug‘urta mahsulotlarini baholash
Risk diversifikatsiyasi	47,0	Uzoq muddat / risk	Riskni taqsimlash (risk pooling) mantiqi
“Kundalik” guruh o‘rtachasi	63,7	–	–
“Uzoq muddat / risk” guruh o‘rtachasi	42,1	–	–
Bilim nomutanosibligi, f.b.	21,7	–	–

Hisob-kitoblar ko‘rsatishicha, kundalik hisob-kitobga oid savollarga aholining o‘rtacha 63,7 foizi to‘g‘ri javob bergan bo‘lsa, uzoq muddatli va risk bilan bog‘liq savollarga bu ko‘rsatkich 42,1 foizni tashkil etgan. Ayniqsa murakkab foiz bo‘yicha savolga atigi 11,3 foiz respondent to‘g‘ri javob bergani e’tiborga

[4] Manba: OECD (2021) ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi (yaxlitlangan ballar asosida).
[5] Manba: OECD (2021, 1.3-jadval) ma’lumotlari asosida muallif tomonidan guruhlangan va hisoblangan.

loyiq: jamg‘ariladigan hayot sug‘urtasi va pensiya mahsulotlarining jozibadorligi aynan murakkab foiz samarasiga asoslanadi. Diversifikatsiya savoliga to‘g‘ri javob berganlarning 47 foizdan oshmasligi esa sug‘urtaning asosiy mexanizmi – ko‘pchilikning kichik badallari hisobiga ozchilikning katta zararini qoplash g‘oyasi aholining yarmidan ko‘piga intuitiv tushunarli emasligini anglatadi.

Ushbu bilim tarkibi aholining uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish xulqida ham aks etadi. So‘rovga ko‘ra, pensiya davrida o‘zbekistonliklarning 83 foizi davlat pensiyasiga, 66 foizi turmush o‘rtog‘i yoki oila a’zolariga, 67 foizi o‘z jamg‘armasiga tayanishni rejalashtirgan, xususiy pensiya mahsulotiga tayanishni esa atigi 17 foiz respondent qayd etgan (OECD, 2021). So‘nggi 12 oyda daromadi xarajatlarini qoplamagan 30 foiz kattalarning 64 foizi norasmiy qarzga, 53 foizi rasmiy kreditga murojaat qilgan, 26 foizi to‘lovlarni kechiktirgan. Boshqacha aytganda, kutilmagan moliyaviy zarbaga qarshi asosiy “sug‘urta” vazifasini oila va tanishlar tarmog‘i bajarmoqda.

Savodxonlik moliyaviy xizmatlardan foydalanishga aylanishi uchun infratuzilmaviy imkoniyat ham zarur. Global Findex ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda moliya muassasasida hisobga ega 15 yoshdan katta aholi ulushi 2011-yildagi 22,5 foizdan 2014-yilda 40,7, 2017-yilda 37,1, 2021-yilda 44,1 foizga oshgan, 2025-yilda esa 59,7 foizga yetgan. Raqamli to‘lovlardan foydalanuvchilar ulushi Osiyo taraqqiyot banki baholashiga ko‘ra 2021-yildagi 39 foizdan 2025-yilda 72 foizga ko‘tarilgan (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025b). Biroq Markaziy bank so‘rovnomasi rasmiy moliya muassasalarida jamg‘arma qiluvchilar ulushi 2021-yilda 2,6 foiz, 2025-yilda 7,4 foiz ekanini, kattalarning 39 foizi esa so‘nggi 12 oyda umuman jamg‘arma qilmaganini ko‘rsatgan (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025a). Jamg‘arma qilmaganlar ulushi Toshkent shahrida 25 foiz, Qoraqalpog‘istonda esa 54 foizni, oliy ma’lumotlilar orasida 27 foiz, 8–9-sinf ma’lumotiga ega bo‘lganlar orasida 53 foizni tashkil etgan. Bu ta’lim darajasi va moliyaviy xulq o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikning milliy darajadagi dalilidir.

3-jadval.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida moliyaviy inklyuziya ko‘rsatkichlari (Global Findex, 2025-yil)[6]

Ko‘rsatkich, 15 yoshdan katta aholiga nisbatan %	O‘zbekiston	Qozog‘iston	Qirg‘iziston	Tojikiston
Moliya muassasasida hisobga egalik	59,7	87,0	72,3	54,5
Raqamli to‘lovlardan foydalanish	49,9	85,0	67,5	49,3
Jamg‘arma qilganlar (har qanday usulda)	32,2	53,0	43,7	28,3
Qarz olganlar (har qanday manbadan)	39,5	62,8	62,9	52,5

3-jadval ma’lumotlari O‘zbekiston moliyaviy inklyuziya bo‘yicha Qozog‘iston va Qirg‘izistondan ortda qolayotganini ko‘rsatadi. Qozog‘istonda hisobga egalik 87 foizni tashkil etgani holda, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 59,7 foiz; jamg‘arma qilganlar ulushi ham (32,2 foiz) qo‘shni mamlakatlardan pastroq. Diqqatga sazovor jihati shundaki, 2021-yilda OECD so‘rovida 89 foiz o‘zbekistonlik o‘zini “faol jamg‘arma qiluvchi” deb baholagan, biroq rasmiy institutlarda jamg‘arma qiluvchilar ulushi 2,6 foizdan oshmagan. Bu “jamg‘arish paradoksi” – tejamkorlik xulqi mavjud, ammo u naqd pul, oltin, ko‘chmas mulk va chorva shaklidagi norasmiy aktivlarda namoyon bo‘lishini anglatadi. Sug‘urta esa, ayniqsa uzoq muddatli hayot sug‘urtasi, aynan rasmiy moliya institutiga ishonch va undan muntazam foydalanish ko‘nikmasini talab qiladi.

Uy xo‘jaliklari darajasida sug‘urta ko‘rsatkichlari. Bozor hajmini aholi soniga nisbatan baholash talab tomonining real holatini aniqroq aks ettiradi (4-jadval).


4-jadval.

O‘zbekistonda aholi jon boshiga sug‘urta ko‘rsatkichlari (2020–2025-yillar)[7]

Yil	Yalpi mukofotlar, trln so‘m	O‘rtacha aholi, mln kishi	Sug‘urta zichligi, ming so‘m	Jon boshiga to‘lovlar, ming so‘m	Penetratsiya, YaIMga %	Hayot sug‘urtasi zichligi, ming so‘m
2020	2,340	34,23	68,4	21,2	0,33	–
2021	3,147	34,92	90,1	35,0	0,37	–
2022	6,232	35,65	174,8	72,8	0,60	42,8
2023	8,060	36,41	221,4	55,5	0,64	8,8
2024	9,770	37,17	262,8	59,3	0,64	7,7
2025	13,463	37,89*	355,3	78,8	0,73	15,5

[6] Manba: World Bank (2025) Global Findex 2025 ma’lumotlari (Finprom.kz va 24.kz nashri orqali) asosida muallif tomonidan tuzilgan.
[7] Manba: Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi, Statistika agentligi va UzDaily ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi. * 2025-yil 1-yanvar va 2026-yil 1-yanvar holatidagi aholi sonining o‘rtachasi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, aholi jon boshiga sug‘urta mukofotlari 2020-yildagi 68,4 ming so‘mdan 2025-yilda 355,3 ming so‘mga, ya’ni nominal jihatdan 5,2 baravar oshgan; o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 39,0 foizni tashkil etgan (2-rasm). Biroq bu ko‘rsatkich 2025-yil dekabridagi rasmiy kurs bo‘yicha (1 AQSh dollari ≈ 11 986 so‘m) taxminan 30 AQSh dollariga teng bo‘lib, xalqaro me’yorlardan ancha past.



2-rasm. O‘zbekistonda sug‘urta zichligi – aholi jon boshiga yalpi sug‘urta mukofotlari, ming so‘m[8]

Uy xo‘jaliklarining mustaqil talabini eng aniq aks ettiruvchi ko‘rsatkich – hayot sug‘urtasi zichligi – esa keskin tebranishlarga uchragan: 2022-yilda 42,8 ming so‘m bo‘lgan ko‘rsatkich 2024-yilda 7,7 ming so‘mgacha qisqargan va 2025-yilda 15,5 ming so‘mga tiklangan. Hayot sug‘urtasining yalpi mukofotlardagi ulushi 2022-yildagi 24,5 foizdan 2025-yilda 4,4 foizga tushgan. 2025-yilning birinchi yarmida hayot sug‘urtasi mukofotlarining 4,9 baravar o‘sishi asosan bankassurans, ya’ni kredit bilan birga sotiladigan polislar hisobiga ta’minlangan. Demak, hayot sug‘urtasi bozori hozircha aholining uzoq muddatli himoya va jamg‘arish ehtiyojiga emas, balki bank kreditlash jarayoniga xizmat qilmoqda.

Shartnomalar tuzilmasi ham shu xulosani tasdiqlaydi. 2025-yilda tuzilgan 12,08 mln yangi shartnomaning 6,14 mln tasi, ya’ni 50,8 foizi transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish (OSAGO) polislariga to‘g‘ri kelgan. Amaldagi 13 mln dan ortiq shartnoma aholi soniga nisbatan har 100 kishiga taxminan 34 ta shartnomani tashkil etadi, biroq ularning katta qismi majburiy yoki kredit bilan bog‘liq turlardir. Bundan tashqari, sug‘urta agentlari soni 2024-yildagi 4804 nafardan 2025-yilda 3684 nafarga qisqargan, ya’ni aholi bilan bevosita ishlovchi, mahsulot mohiyatini tushuntiruvchi vositachilar tarmog‘i torayib bormoqda.

Olingan natijalar xalqaro adabiyotdagi xulosalar bilan muvofiq, biroq O‘zbekiston uchun o‘ziga xos jihatlarni ham ochib beradi. Birinchidan, Lusardi va Mitchell (2014) tomonidan qayd etilgan murakkab foiz va diversifikatsiya bo‘yicha bilim yetishmovchiligi O‘zbekistonda ayniqsa keskin namoyon bo‘ladi (11,3 va 47,0 foiz). Lin va hammualliflar (2019) ta’kidlaganidek, sug‘urta qarori umumiy moliyaviy bilimdan ko‘ra aniqroq – risk va uzoq muddatli pul oqimlarini tushunishni talab qiladi; bizning “bilim nomutanosibligi” ko‘rsatkichi (21,7 f.b.) aynan shu sohadagi bo‘shliqni miqdoriy jihatdan ifodalaydi.

Ikkinchidan, O‘zbekistonda yuqori xulq va munosabat ballari past moliyaviy inklyuziya bilan birga kuzatilmoqda. Bu holatni Kunreuther va boshqalar (2013) tavsiflagan xulq-atvor omillari bilan izohlash mumkin: aholi tejamkor bo‘lsa-da, kichik ehtimolli xatarlarni kam baholaydi va sug‘urta mukofotini “foydasiz xarajat” sifatida qabul qiladi. Bunga mahalla va qarindoshlik tarmoqlari asosidagi norasmiy o‘zaro yordam an’anasi qo‘shiladi: 2021-yilda moliyaviy qiyinchilikka uchraganlarning 64 foizi norasmiy qarzga tayangani buni tasdiqlaydi. Cole va boshqalar (2013) ko‘rsatganidek, bunday sharoitda faqat axborot berish yetarli emas – mahsulotga ishonch va to‘lovlarning tez amalga oshirilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Uchinchidan, Beck va Webb (2003) asoslagan makro omillar – bank sektori rivoji va inflyatsiya – O‘zbekistonda ham hayot sug‘urtasi talabiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bank depozitlari bo‘yicha yuqori foiz stavkalari sharoitida jamg‘ariladigan hayot sug‘urtasi aholi uchun raqobatbardosh ko‘rinmaydi, murakkab foizni tushunmaslik esa uzoq muddatli mahsulotlarning afzalliklarini baholashga to‘sqinlik qiladi. Natijada hayot sug‘urtasi bozori bankassuransga qaram bo‘lib qolmoqda.

Shu bilan birga, ijobiy omillar ham mavjud. Raqamli to‘lovlardan foydalanishning 72 foizga yetishi sug‘urta mahsulotlarini mobil ilovalar orqali sotish uchun keng imkoniyat yaratadi. Ta’lim darajasi bilan jamg‘arish xulqi o‘rtasidagi aniq bog‘liqlik (oliy ma’lumotlilarda jamg‘arma qilmaganlar 27 foiz, to‘liqsiz o‘rta ma’lumotlilarda 53 foiz) moliyaviy ta’lim siyosatining samaradorligiga umid beradi. Hududiy tafovut (Toshkent shahri 25 foiz, Qoraqalpog‘iston 54

[8] Manba: 4-jadval ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

foiz) esa savodxonlik dasturlarini hududlar kesimida tabaqalashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O‘zbekiston aholisining moliyaviy savodxonligi MDH o‘rtachasidan yuqori (12,6 va 11,7 ball), biroq bu ustunlik bilim emas, xulq va munosabat hisobiga shakllangan; bilim bo‘yicha minimal maqsadga kattalarning faqat 31 foizi erishgan.

1. Moliyaviy bilim tarkibida nomutanosiblik mavjud: kundalik hisob-kitobga oid savollar bo‘yicha to‘g‘ri javoblar 63,7 foiz, sug‘urta mantiqi uchun tayanch bo‘lgan uzoq muddatli va risk savollari bo‘yicha 42,1 foiz; murakkab foizni tushunuvchilar atigi 11,3 foizni tashkil etadi.

2. Aholining tejamkorlik xulqi rasmiy moliya institutlariga yetarlicha yo‘naltirilmagan: rasmiy jamg‘arma qiluvchilar ulushi 2025-yilda 7,4 foiz, moliyaviy zarbaga qarshi asosiy vosita esa norasmiy qarz bo‘lib qolmoqda.

3. Sug‘urta zichligi 2020–2025-yillarda 68,4 ming so‘mdan 355,3 ming so‘mga oshgan bo‘lsa-da, hayot sug‘urtasi zichligi 2025-yilda 15,5 ming so‘mni tashkil etgan, yangi shartnomalarning yarmi majburiy OSAGO polislaridir. Bu bozor o‘sishi aholining ixtiyoriy talabidan ko‘ra majburiy va kredit bilan bog‘liq omillarga tayanayotganini ko‘rsatadi.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Sug‘urta savodxonligini moliyaviy ta’lim dasturlarining alohida moduliga aylantirish. Umumta’lim maktablari, kasb-hunar maktablari va oliy ta’lim muassasalaridagi “Moliyaviy savodxonlik”, “Personal moliya” kabi fanlarga risk, diversifikatsiya, murakkab foiz va sug‘urta shartnomasi shartlarini amaliy misollar orqali o‘rgatuvchi mavzularni kiritish.

2. Moliyaviy savodxonlikni muntazam monitoring qilish. Markaziy bank va Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi hamkorligida OECD/INFE metodikasi asosida har 2–3 yilda milliy so‘rov o‘tkazish va unga sug‘urta mahsulotlaridan foydalanish hamda sug‘urta savodxonligi bo‘yicha savollar blokini qo‘shish.

3. Mahsulot axborotini soddalashtirish. Ommaviy ixtiyoriy sug‘urta mahsulotlari uchun bir sahifali standart “asosiy ma’lumotlar varag‘i”ni (sug‘urta qoplamasi, istisnolar, franshiza, to‘lov muddati) joriy etish; bankassurans orqali sotiladigan polislarda ixtiyoriylik va bekor qilish huquqini aniq ko‘rsatish.

4. Raqamli kanallar orqali “kirish darajasi”dagi mahsulotlarni rivojlantirish. Raqamli to‘lovlardan foydalanishning yuqori darajasidan foydalanib, mobil ilovalarda arzon, tushunarli va tez to‘lanadigan baxtsiz hodisa, tibbiy va uy-joy sug‘urtasi mahsulotlarini taklif etish.

5. Hududiy tabaqalashtirilgan yondashuv. Jamg‘arma qilmaganlar ulushi yuqori bo‘lgan hududlarda (xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi) mahalla institutlari, banklar va sug‘urtalovchilar ishtirokida moliyaviy ta’lim tadbirlarini ustuvor tashkil etish.

Kelgusi tadqiqotlar uy xo‘jaliklari darajasidagi mikroma’lumotlar asosida moliyaviy savodxonlikning sug‘urta mahsulotiga egalik ehtimoliga ta’sirini ekonometrik baholashga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ablatdinov, S. A. (2023). Improving financial literacy of the population of Uzbekistan: Problems and solutions. Экономика и социум, 12(115)-1, 89–94.
2. Atkinson, A., & Messy, F.-A. (2012). Measuring financial literacy: Results of the OECD/International Network on Financial Education (INFE) pilot study (OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions, No. 15). OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/5k9csfs90fr4-en
3. Beck, T., & Webb, I. (2003). Economic, demographic, and institutional determinants of life insurance consumption across countries. The World Bank Economic Review, 17(1), 51–88.
4. Cole, S., Giné, X., Tobacman, J., Topalova, P., Townsend, R., & Vickery, J. (2013). Barriers to household risk management: Evidence from India. American Economic Journal: Applied Economics, 5(1), 104–135.
5. Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., & Ansar, S. (2022). The Global Findex Database 2021: Financial inclusion, digital payments, and resilience in the age of COVID-19. World Bank. https://doi.org/10.1596/978-1-4648-1897-4
6. Kunreuther, H. C., Pauly, M. V., & McMorrow, S. (2013). Insurance and behavioral economics: Improving decisions in the most misunderstood industry. Cambridge University Press.
7. Lin, X., Bruhn, A., & William, J. (2019). Extending financial literacy to insurance literacy: A survey approach. Accounting & Finance, 59(S1), 685–713.
8. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The economic importance of financial literacy: Theory and evidence. Journal of Economic Literature, 52(1), 5–44. https://doi.org/10.1257/jel.52.1.5
9. Mahdzan, N. S., & Victorian, S. M. P. (2013). The determinants of life insurance demand: A focus on saving motives and financial literacy. Asian Social Science, 9(5), 274–284.
10. Mirzaxo‘jayeva, S. (2025). Financial literacy in Uzbekistan: Building a sustainable future. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 5(01), 375–383. https://doi.org/10.55439/AFA/vol5_iss01/913
11. OECD. (2021). Financial literacy levels in the Commonwealth of Independent States in 2021. OECD Publishing.
12. Outreville, J. F. (1996). Life insurance markets in developing countries. The Journal of Risk and Insurance, 63(2), 263–278.
13. Swiss Re Institute. (2024). World insurance: Strengthening global resilience with a new lease of life (sigma No. 3/2024). Swiss Re.
14. Weedige, S. S., Ouyang, H., Gao, Y., & Liu, Y. (2019). Decision making in personal insurance:

Impact of insurance literacy. Sustainability, 11(23), 6795.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), “Iqtisodiyot va moliya” kafedrasi dotsenti v.b., Xalqaro innovatsion universiteti (Qarshi sh.) / Бахриев Дилшод Ризвонкулович Доктор философии (PhD) по экономике, исполняющий обязанности доцента кафедры экономики и финансов, Международный инновационный университет (Карши) / Bakhriyev Dilshod Rizvonkulovich Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Acting Associate Professor, Department of Economics and Finance, International Innovation University (Karshi)
E-mail: dilshodbaxriyev5000@gmail.com

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

t.me/kstu_uz

Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225

www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz